

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarini aqli zaif bolalarga o'qitishda qo'llanadigan usul va o'yinlar

Methods and Games for Teaching Mother Tongue and Reading Literacy to Children with Mental Retardation

Методы и игры для обучения родному языку и грамоте чтения детей с умственной отсталостью

Muhammadiyeva Umida Abdug'afforovna

Samarqand viloyati Oqdaryo tumanidagi

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan(aqli zaif)

Bolalar uchun ixtisoslashtirilgan 63-maxsus maktab

internatida ona tili va o'qish fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili va o'qish savodxonligi darslarini aqli zaif bolalarga o'qitishda qo'llanadigan usul va o'yinlar, ularning mazmun-mohiyati haqida so'z boradi.

Abstract: This article talks about the methods and games used in teaching mother tongue and reading literacy classes to mentally retarded children, as well as their content.

Аннотация: В данной статье рассказывается о методах и играх, используемых на занятиях по обучению родному языку и грамоте чтения умственно отсталых детей, а также их содержанию.

Ushbu maqolani yozishdan maqsad: ona tili va o'qish savodxonligi darslarini aqli zaif bolalarga o'qitishda zamonaviy usullardan foydalanish strategiyalarining ahamiyatini ko'rsatib berish.

The purpose of writing this article is to demonstrate the importance of strategies for using modern methods in teaching mother tongue and reading literacy classes to children with intellectual disabilities.

Цель написания этой статьи — продемонстрировать важность стратегий использования современных методов в обучении родному языку и обучении грамоте чтения детей с ограниченными интеллектуальными возможностями.

Usul va o'yinlar: "Charxpalak", "Ha,yo'q", "Men kimman?", "Quvnoq karusel"...

Methods and games: "Charkhpalak", "Yes.no", "Who am I?", "Happy carousel"...

Методы и игры: «Чархпалак», «Да,...нет», «Кто я?», «Веселая карусель»...

Natija: Aqli zaif bolalarni o'qitishda ona tili va o'qish savodxonligi darslarini qo'llanadigan usul va o'yinlar orqali qobilyatlarini rivojlantirish va o'stirish.

Result: Development and growth of abilities of children with mental retardation through games and methods used in mother tongue and reading literacy classes.

Результат: Развитие и рост способностей детей с задержкой психического развития через игры и методики, используемые на занятиях по родному языку и чтению.

Kalit so'zlar: mashg'ulotlar, ta'lim-tarbiya, zamonaviy texnologiyalar, e'tibor, aqli zaif, poydevor, amaliy faoliyat, nazariy bilim, savodxonlik...

Key words: training, education, modern technologies, attention, mentally retarded, foundation, practical activity, theoretical knowledge, literacy...


Ключевые слова: обучение, воспитание, современные технологии, внимание, умственно отсталые, фундамент, практическая деятельность, теоретические знания, грамотность...

Hamma o'qitish strategiyalari har qanday vaziyatga mukammal mos kelmaydi. Siz tanlagan strategiyalari har qanday vaziyatga mukammal mos kelishi uchun, o'quvchilar jamoasining manfaatlariga mos kelishi, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida ijobiy aloqalarni hosil qilishi, o'quvchilarning mustaqil fikr yuritishini ta'minlashi, o'quvchilarda mashg'ulotga qiziqishni paydo qilishi lozim.

O'qish nazariy bilimlarni beradi, amaliy mashg'ulotlar esa nazariy bilimlarni chuqurlashtiradi va amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini hosil qiladi. Nazariy bilimlar ma'lumotni tinglash tushunish uchun poydevor yaratadi. Amaliy tajriba bunga asoslanadi va bu poydevorni yanada mustahkamlaydi. Shunday qilib, eng yaxshi ta'lim strategiyasi nazariy va amaliy faoliyatning sog'lom aralashmasidir. Bugungi kunda davlatimiz tomonidan ta'limga qaratilayotgan e'tibor barcha o'qituvchilarning o'z ustida ishlashi, tinmay izlanish olib borishi hamda o'quv jarayonini zamon talablari darajasida, ilmiy asosda tashkil etishlari uchun zaruriy sharoitlarni yaratib berish bilan bir qatorda, ta'lim sohasiga yosh mutaxassislarning kelib qo'shilishiga imkoniyat yaratmoqda, bu esa o'z navbatida ta'lim muassasasi rahbarlari oldiga yanada yangi vazifalar qo'yadi. Ma'lumki,

inson har doim o'sish va rivojlanishdadir. Shunday ekan, inson kamolotiga ta'sir etuvchi omillarnig ilmiy-nazariy mohiyatini barcha pedagogik jamoa rahbarlari to'g'ri tushinishlari lozim. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida ham yuqorida sanab o'tilgan interfaol metodlardan tashqari "Ha... yo'q", "Men kimman?", "Quvnoq korusel", "Charxpalak" kabi interfaol usul va didaktik o'yinlardan foydalanish mumkin. Usul va o'yinlar vaqtida o'quvchilar o'zini erkin tutadi, bilimni namoyon etgisi keladi. Natijada o'quvchida ishonch, qat'iyat paydo bo'ladi. Munozaraga kirishishni o'rganadi. Fikrini asoslashga odatlanadi. Bunda o'quvchilarning yoshi, bilim darajasi inobatga olinishi lozim. O'qituvchi va o'quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asaosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo'lib, bunda ishlatiladigan texnologiya o'quvchilarning [bilim saviyasi](#), guruh tabiati va sharoitga qarab tanlanadi.

"Ha, yo'q" didaktik o'yini. Bu o'yin quyidagicha tashkil etiladi.



"CHARXPALAK" USULI. Ushbu texnologiya o'quvchilarni o'tilgan mavzularni esga olish, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berish va o'z-o'zini baholashga o'rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarning bilimlarini baholashga qaratilgan. Bu usulni qo'llashdan maqsad o'quvchilarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o'z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlash, boshqalar fikriga hurmat bilan qarash, ko'p fikrlardan keraklisini tanlab olishga o'rgatishdir. Ushbu texnologiya ona

tili va adabiyot darslarining boshlanishi va oxirida yoki biron-bir bo'lim tugallanganda o'tilgan mavzuning o'quvchilar tomonidan qay darajada o'zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash uchun mo'ljallangan.

“Quvnoq karusel” usuli. Bu usul darsning boshidan oxirigacha tashkil etiladi. Bunda dars boshida karuselga taklif etiladi. Sayohat tarzida tashkil etilgan ushbu darsda o'quvchilarga karuselga chiqish uchun biletlar tarqatiladi. O'quvchilar biletlar orqasiga yozilgan yangi so'zlarni o'qishlari kerak bo'ladi. So'zlarni o'qiy olgan o'quvchilar karuselda uchadilar. Dars oxirida

“QUVNOQ KARUSEL”



biletlni ko'p qo'lga kiritgan o'quvchilar a'lo baholarda baholanadi.


Shuningdek, aqli zaif o'quvchilarning savodxonligini oshirishda **psixologlar xizmatiga tayanamiz. Ular bu borada quyidagilarga e'tibor qaratadilar:**

- hissiy barqaror (bosiq, xotirjam);
- fikrlashda divergensiyalilik (ijodiy fikrlash usuli, turli yo'nalishlarda fikr yuritish qobiliyati);
- xatti-harakatlarda moslashuvchan (strategiyani tez o'zgartirish);
- ijtimoiy faol (qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan o'zgarishlarga qobiliyat va tayyorlik);
- empatiya (hamdard bo'lish qobiliyati, har doim yordamga kelishga tayyorlik);
- muloqotchan, xayrixoh, sabrli, ishonchli, g'amxo'r;
- xushmuomalalik (birovni noqulay xijolatli holatga keltirmaslik, kamsitmaslik uchun diagnostik va psixologik-pedagogik chora-tadbirlarni qurish qobiliyati)

Ular bilan birgalikda aqli zaif bolalarni ta'lim jarayonida psixologik xizmatni tashkil etish jarayonini ko'rib chiqdik. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki,

psixologik xizmatni to'g'ri tashkil etish orqali aqli zaif bolalarga ta'lim berishda ta'limga muvaffaqiyatli erishish mumkin!

“**Men kimman?**” didaktik o'yini. Bunda o'quvchilarga turli rasmlar ko'rsatiladi. Ular haqida ta'riflar aytiladi. Bolalar rangi, xususiyatidan kelib chiqib, ularning nomini topishi kerak bo'ladi. Usul shu tartibda o'tkaziladi.



Aqli zaif bolalarga ona tili va o'qish savodxonligi darslarida asosan she'rlar, masallar, ertaklar, hikoyalar, afsonalar, maqol va topishmoqlar, ilmiy-ommabop asarlar o'qib o'rganiladi. Tabiiyki, ularning har biri o'ziga xos shakl, uslub va mazmunda yaratiladi. Shuning uchun ham har bir janrga mansub asarlarni o'ziga xos usulda o'qib o'rganish taqazo qilinadi.

Xullas, aqli zaif bolalarni tarbiyalash, ularga ta'lim berish azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, millat ma'naviyatining uzviy qismi bo'lib kelgan. Buning isbotini ulug' alloma Abu Nasr Farobiyning: “Inson erishadigan eng yuksak kamolot - tabiat ato qilgan kamolot darajasining o'zidir, inson erishgan barkamollik, niyat va erkin tanlov natijasidir”, - degan fikrlaridan anglaymiz. Bugungi kun o'qituvchining asosiy vazifasi ham o'quvchini komil inson qilib tarbiyalash, uni tanlagan tanlovlariga erishish yo'lida fidoiylik ko'rsatish ekanligini anglash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. X.Ibragimov va boshqalar. Pedagogik psixologiya. T.: 2007-y.
2. Yusupova F. I. O'quvchilar individual tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik-psixologik jihatlari. "Xalq ta'limi" jurnali. 2005-y. №2.
3. Internet saytlari. www. ziyo.net, www. edu.uz, www. kitob.uz.